

Bank Boshqaruvining
2026-yil " 24 " iyuldagi
57/17 - sonli
Qaroriga 2 -sonli ilova

KREDIT MAHSULOTI PASPORTI

Kredit mahsulotining turi va nomi	Avtokredit - "Wuling Bardosh"
Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchiga qo'yiladigan talablar	O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan, 18 yoshga to'lgan jismoniy shaxs
Kredit valyutasi	O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi – so'm.
Kredit miqdori	Avtotransport vositasini yetkazib berish shartnomasida belgilangan, avtotransport vositasi narxining 50 foiz miqdorigacha
Kredit maqsadi	"Asaka Motors International" MCHJ va uning rasmiy dillerlari tomonidan yetkazib beriladigan "Wuling Bardosh" rusumidagi avtotransport vositasini sotib olish uchun
Kredit muddati	Imtiyozli davrsiz, 42 oydan oshmagan muddatga
Taqdim etish shakli	"Asaka Motors International" MCHJning hisob raqamiga pul ko'chirish yo'li orqali
Boshlang'ich to'lov	Avtotransport vositasini yetkazib berish shartnomasida belgilangan, avtotransport vositasi narxining 50 foizdan kam bo'lmagan miqdorida;
Foiz stavkasi	Yillik 0,0 %. Muddati o'tgan asosiy qarz bo'yicha oshirilgan foiz stavkasi Markaziy Bankning asosiy stavkasi 3 barobari miqdorida belgilanadi;
Talab etiladigan hujjatlar	A) Shaxsni tasdiqlovchi hujjat (pasport, ID-karta, yashash guvohnomasi va h.k.); B) Avtotransport vositasining oldi-sotdi shartnomasi; C) O'zini o'zi band qilganlik to'g'risidagi guvohnoma (kredit o'zini-o'zi band qilgan shaxslarga ajratilganda); D) Mijoz turmush o'rtog'ining kredit hisobiga sotib olinadigan avtotransport vositasini garovga taqdim etilishiga rozilik arizasi. Turmush o'rtog'i mavjud bo'lmagan hollarda, mijoz tomonidan kredit ajratish uchun ariza berilgan kunga nikohi mavjud emasligini tasdiqlovchi hujjat. Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi(lar)ning (mavjud hollarda) daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlar bank tomonidan maxsus tarmoqlar orqali elektron shaklda mustaqil ravishda olinadi. Daromadlarni aniqlash imkoniyati bo'lmagan taqdirda, ularni tasdiqlovchi hujjatlar qarz oluvchidan talab qilinishi mumkin. Bunda daromadlar to'g'risidagi ma'lumotlar kamida oxirgi 6 (olti) oy uchun hisoblandi
Kredit ta'minoti	Sotib olinayotgan avtotransport vositasi kredit miqdorining 133.3 foizdan kam bo'lmagan qiymatda garovga qabul qilinadi.

	• Ta'minot bo'yicha garov shartnomasini notarial yoki bank tomonidan mustaqil ravishda rasmiylashtirilgunga qadar qo'shimcha ta'minot talab qilinmaydi.
Kreditni qaytarish tartibi	Annuitet yoki differensial to'lov usulida.
Qo'shimcha shartlar	• Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi qarz yuki ko'rsatkichi 50 foizdan oshmasligi lozim; • MIB joriy qarzдорligi bo'lmasligi; • Kredit byurolaridan olingan so'nggi 3 yil muddatdagi kredit tarixi ijobiy bo'lishi lozim. Bunda, 30+ 10 tagacha yo'l qo'yiladi; 60+ 3 tagacha yo'l qo'yiladi. Doimiy rasmiy daromadga ega bo'lgan jismoniy shaxslarga 90+ 1 tagacha yo'l qo'yiladi.